

FORCE MAJEURE AND ITS SIGNIFICANCE IN CIVIL-LEGAL LIABILITY.

Muradullaeva Sevinch Makhsudjon qizi,
3 rd year student of Tashkent State University of Law,
muradullaevas19@gmail.com

Annotation.

Civil liability of the parties is one of the important institutions of civil law. There are circumstances beyond the will of the parties, which are called force majeure in science. This article analyzes the basis of determining liability for parties in civil-legal relations, considers the importance of force majeure in contractual-legal relations, theoretical-practical analysis of force majeure as a legal fact.

Key words: civil-legal responsibility, parties, fault, legal fact, force majeure.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilash taraflarning huquqlarini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tenglik, shartnoma tuzishda erkinlik, mulkiy daxlsizlik, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashmaslik, fuqarolik huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirish, buzilgan huquqlarni tiklash, ularning sud orqali himoya qilish kabi tamoyillar asosida kirishadilar, o'zlariga yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar, buzilgan huquq va majburiyatlar uchun javobgar bo'ladilar. Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishar ekan, tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 234-moddasida majburiyat tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib majburiyat deyilganda, bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulknini topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'lishi kreditor esa — qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lishi tushuniladi [1]. Qonunchilikka ko'ra, majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik kelib chiqadi.

Shunday holatlar ham mavjudki, ular taraflarning irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, bir taraf ikkinchi tarafga shartnomaga muvofiq, yog'och yetkazib berish majburiyatini olgan, lekin kuchli sel kelishi natijasida barcha yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlar yaroqsiz holga kelgan va bu holat yengib bo'lmay kuch ta'sirida yuzaga kelgan. Majburiyat olgan tarafning aybi natijasida yuzaga kelmagan. Xo'sh, bu holatda javobgarlik masalasi qanday hal qilinadi?

Nazariy manbalarda yuridik faktlar degan tushuncha mavjud bo'lib, yuridik faktlar deyilganda, huquq va majburiyatlarni yuzaga keltiruvchi, bekor qiluvchi va o'zgartiruvchi harakat yoki hodisalar tushuniladi [2]. Inson irodasiga bog'liq bo'lgan harakatlar yuridik harakatlar deyiladi, insonning irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar esa yuridik hodisalar hisoblanadi. Yuridik hodisalarga misol tariqasida, insonning tug'ilishi, vafoti va tabiat hodisalarini

keltirishimiz mumkin. Bunday hodisalar huquq va majburiyatlarni yuzaga keltirishga, bekor qilishga yoki o'zgartirishga olib kelsa, yuridik fakt sanaladi.

I.B.Zokirovning fikricha, nazariya va amaliyotda fors-major holatlar qarzdorni majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qiladi [3]. Ushbu fikrni tahlil qilishdan oldin fors-major holatlar tushunchasiga ta'rif berib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. B.R.Topildiyevning fikricha, fors-major tushunchasiga hozirgi kunda yagona ta'rif mavjud emas, negaki fors-major holatlarni baholash mexanizmlari ham yaratilmagan. Ammo fransuz huquqida fors-major holatlar deyilganda, "yengib bo'lmas kuch" yoki "tasodif" tushuniladi va uning asosiy sharti ushbu hodisalarni qaytarib bo'lmas kuch ekanligini nazarda tutadi [4]. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasida Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topilishi, aybning yo'qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanishi, majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olsa, javobgarlikdan ozod bo'lishi, kodeksining 349-moddasida esa aybning mavjud emasligi majburiyat uchun javobgarlikning bekor bo'lishiga olib kelishi belgilangan bo'lsa-da, fors-major holat sifatida topilishi mumkin bo'lgan holatlar chegarasi belgilanmagan.

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksida fors-major holatlar deb hisoblash mumkin bo'lgan aniq holatlar belgilangan va ular quyidagilar:

a) e'lon qilingan va e'lon qilinmagan urushlar, shu jumladan fuqarolar urushlari, tartibsizliklar, inqiloblar;

b) bo'ronlar, zilzilalar, chaqmoq urishi, toshqinlar natijasida sodir bo'lgan tartibsizliklar va boshqa tabiiy ofatlar;

v) mashina va asbob-uskunalar, zavodlar va boshqa turdagi qurilmalar va jihozlarning ishdan chiqishi (buzilishi), portlashlar, yong'inlar oqibatlar;

g) boykotlar, ish tashlashlar;

d) hokimiyatning qonuniy yoki noqonuniy xatti-harakatlari .

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida aniq chegara mavjud bo'lsa-da olimlarning fikricha, fors-major tushunchasi nisbiy tushunchadir. Bundan tashqari, bu nisbiylik obyektiv bo'lib, subyektiv shartlarga emas, balki shartlarga, joy va vaqtga bog'liq bo'lishi kerak [5]. Fikrimizcha, fors-major holatlarning aniq belgilab, qo'yilishi majburiyatlarni bajara olmagan tarafning holatini og'irlashtirishi mumkin. Shuning uchun fors-major holatlarni belgilash obyektiv sharoitlarga bog'liq bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fors-major holatlar agar fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga ta'sir etsa, majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qilsa, buning uchun majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik bekor bo'ladi, yuridik fakt kelib chiqadi. Fors-major holatlar obyektiv shart-sharoitga bog'liq va aniq belgilangan holatlarni fors-major sifatida baholanishi, taraflarning huquqiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.21-y, 03/21/683/0375-son;
2. Pleniuk, M. (2016). The concept and features of legal facts in the doctrine of law of obligations. *Evropsky politicky a pravni diskurz*, (3, Iss. 2), p.126-131;
3. Zokirov I.B. Civil law. Part I.-Tashkent: TSUL, 2009.-126 p. // Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. I қисм.-Тошкент: ТДЮИ, 2009.-126 б;
4. Topildiyev.B.R. Interpretation of Events as a Legal Fact// *International Journal of Social Science Research and Review*. <http://ijssrr.com> editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 5 May, 2022 Pages: 55-59;
5. Захарова Ольга Николаевна. Непреодолимая сила и гражданско-правовая ответственность.//<https://www.dissercat.com/content/nepreodolimaya-sila-i-grazhdansko-pravovaya-otvetstvennost>.